

OGAHİY G`AZALLARI BADIİYATI

Xakimova Sarvinoz Muzaffar qizi

Ogahiy o`zining go`zal she`rlari, tarixiy va tarjima asarlari bilan adabiy merosimizning yanada boyishiga katta hissa qo`shdi. Xalqimiz ma`naviy ongining osishiga ta`sir ko`rsatdi. Ayniqsa, she`riyat bobida shuhrat topdi. O`zidan ulkan lirik meros qoldirdi. Shoirning ezgulikka chorlovchi chuqur falsafiy mazmun kasb etuvchi ko`plab she`rlarini uchratamiz.

Biz bilamizki, Ogahiy oshiqona mavzuda go`zal g`azallar muxammaslar, tuyuq va ruboiylar bitgan. Uning □Ta`viz ul- oshqin□ (□Oshiqlar tumori□) devoniga kiritilgan she`rlarining ko`pchilik qismini ishqiylar tashkil etadi. Buni devonning nomlanishidan ham bilsa bo`ladi. Bunda ko`proq ilohiy ishq, ya`ni Olloh muhabbati o`z ifodasini topgan. Shoir o`z ijodi davomida ko`proq hazrat Navoiyning hayotbaxsh, inson tuyg`ulari go`zal ifodalangan she`rlaridan ilhomlanadi:

*Ogahiy, kim topqay erdi sozi nazmingdin navo,
Bahra gar yo`qtur Navoiyning navosidin senga.*

Ogahiy she`riyati, nafaqat mavzu ko`lami va janriylar xilma-xilligi jihatdan, balki badiiyati jihatdan ham yuksak. Shoirning inson qalb kechinmalarini, nozik his-tuyg`ularini teran ifoda etuvchi sarmazmun va ohangdor she`rlari hamon xalqimiz tomonidan sevib o`qilib, kuylanib kelmoqda.

Jumladan:

*Oshiq o`lding, ey ko`ngil, joning kerakmasmu sango,
O`tga kirding, jismu uryoning kerakmasmu sango.*

Ogahiy she`riyatining badiiy jihatdan yuksakligini uning poetik usullardan mahorat bilan foydalana bilganligida belgilashimiz mumkin. Ana shunday badiiy jihatdan yuksak she`rlaridan □Ustina□, □Arzimas□, □Bo`lmasa bo`lmasun netay□, □Sallamno□ radifli g`azallari, □Ilohi, har kuning navro`z bo`lsin□, □Ne ajab□□ deya boshlanuvchi g`azallarini va boshqa ko`plab she`rlarini misol sifatida aytishimiz mumkin.

□Ustina□ rajazi musammani solim vaznidagi yakpora g`azal bo`lib, ishqiylar mavzuda bitilgan. Shoir hayratomuz badiiy manzara chizadi: mushkin(qora) rangli qoshi (qilichdek) jon oluvchi ko`zi (jallod) ustida go`yo oshiqni qatl etuvchi hukm (nas)ni keltirayotgandek, ko`z-sodga, qosh-nunga o`xshatilgan. Biriktirsa nas - hukm so`zi paydo bo`ladi. Ham shaklan, ham

ma`nan yorning go`zalligi ifodalangan, *kitobat(harfiy san`at), tashbeh, talmeh, mubolag`a, husni ta`lil san`atlari* ishlatilgan:

*Mushkin qoshining hay`ati ul chashmi jallod ustuna,
Qatlim uchun nas kelturur □nun□ eltibon □sod□ ustuna.*

G`azalning quyidagi misralarida esa mubolag`a san`atining go`zal namunasini ko`ramiz:

*Boshimg`a yoqqan g`am toshin mingdin biricha bo`lmag`ay,
Gardun agar ming Besutun yog`dursa Farhod ustina.*

Umuman, Ogahiyning bu g`azalida badiiy san`atning ko`pgina turlaridan foydalanilganligining guvohi bo`lishimiz mumkin.

□Arzimas□ g`azalida falsafiy hikmatlar bo`lib, bu dunyoning g`am-anduhi oldida rohat-farog`atlar arzimas, shuning uchun dunyoparast bo`lmasdan, hayotni aql-idrok bilan o`tkazishga o`rgatadi.

□Bo`lmasa bo`lmasun netay□ radifli g`azali Navoiyning □Gar alamimga chora yo`q bo`lmasa bo`lmasun netay□ matla`li g`azaliga nazira bo`lib, uni Ogahiy o`sha vazn, qofiya va radif kabi shakily-badiiy xususiyatini saqlagan holda yozgan. Nazira o`xshash, monamd, teng ma`nosida bo`lib, adabiyotda bir shoir g`azaliga o`xshatma tarzida yozilgan asardir. G`azal ishq mavzusida, izhor uslubida, yakpora g`azal bo`lib, unda *radd ul-matla` san`ati* ishlatilgan, ya`ni matla`ning 1-misrasi maqtaning 2-misrasida takrorlanadi. Radif □ □bo`lmasa bo`lmasun netay□ ohangdorlikni ta`minlagan. She`rda tashbeh, istiora, tazod, tardi aks san`atlari ishlatilgan.

*Ashkima gar kanora(qirg`oq) yo`q bo`lmasa bo`lmasun netay,
Ohima ham shumora yo`q bo`lmasa bo`lmasun netay.*

Ogahiy she`riy san`atlarni eng ko`p qo`llagan san`atkor shoir. U ataylab badiiy san`at qo`llamaydi, uning qalamiga tushgan so`z san`at bo`lib muhrlanadi. Shoirning quyidagi misralarida tashxis san`atining go`zal namunasini ko`rishimiz mumkin:

*Noz-u ado-u g`amzasi qatlim qilurlar dam-badam,
Vah muncha ofatmu bo`lur bir odamizod ustina?*

Shoirning quyidagi misralarida esa irsoli masal san`ati qo`llangan:

*Xunob ichar vaqtimda xush kelding ko`ngilkim xalqaro,
Yaxshi masaldurkim:□Kelur yaxshi kishi osh ustina.*

Umuman, shoir g`azallari badiiy jihatdan nihoyatda yuksak darajada bitilgan. Ular salaflari Lutfiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy hamda Munis kabi mumtoz adabiyotimizning yorqin siymolari an`analarini davom ettirdi, rivojlantirdi, yangi badiiy kashfiyotlar, bilan boyitdi. Ogahiy bobomizning ijodi shoirlarimizning bir necha avlodi uchun mahorat maktabi bo`lib xizmat qiladi.